



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Feruza Mirzoyeva Salimovna

iqtisodiyot fani o'qituvchisi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent Davlat o'zbek-tili va adabiyoti

universiteti

feruzamirzoyeva21@gmail.com

Shaxobiddin Boboxonov

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent Davlat o'zbek-tili va adabiyoti

universiteti magistranti

Shaxobiddin_boboxonov@gmail.com

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/NYRK3076

Annotatsiya: Bugungi globalashuv jarayonida har bir mamlakat o'z iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish, milliy daromadni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilash yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tobora ortib bormoqda. Chunki mazkur sektor iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, yirik investitsiyalarsiz, qisqa muddat ichida natijador faoliyat yuritish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, ularni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash masalasi mamlakat taraqqiyotining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy islohotlar, biznes muhiti, investitsiya muhiti, moliyaviy resurslar, soliq siyosati, bandlikni oshirish, iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik faoliyati.*

ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Шахобиддин Бобохонов,

Магистрант Ташкентского государственного университета

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Email: Shaxobiddin_boboxonov@gmail.com

Аннотация. В современном процессе глобализации каждая страна проводит последовательные реформы для укрепления своего экономического потенциала, увеличения национального дохода, создания новых рабочих мест и повышения уровня жизни населения. В этом процессе все большую роль играет малый бизнес и частное предпринимательство. Это

объясняется тем, что данный сектор играет важную роль в экономике и предоставляет возможность эффективно функционировать в короткие сроки без крупных инвестиций. В частности, вопрос их поддержки и предоставления им финансовых ресурсов является одним из наиболее актуальных направлений развития страны.

Ключевые слова: *Малый бизнес, частное предпринимательство, государственная поддержка, экономические реформы, бизнес-среда, инвестиционный климат, финансовые ресурсы, налоговая политика, рост занятости, экономический рост, предпринимательская деятельность, проблемы и возможности.*

SUPPORTING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.

Shaxobiddin Bobokhonov,

Master's student at

Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi

ORCID: 0009-0007-7047-6791

Email: Shaxobiddin_boboxonov@gmail.com

Abstract: In today's globalization process, each country is implementing consistent reforms to strengthen its economic potential, increase national income, create new jobs and improve the living standards of the population. In this process, the role of small business and private entrepreneurship is increasingly increasing. Because this sector plays an important role in the economy and provides an opportunity to operate effectively in a short time without large investments. In particular, the issue of supporting them and providing them with financial.

Keywords: *Small business, private entrepreneurship, government support, economic reforms, business environment, investment climate, financial resources, tax policy, employment growth, economic growth, entrepreneurial activity, challenges and opportunities. esources is one of the most urgent areas of the country's development.*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas va muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu sektor o'zining moslashuvchanligi, kam resurs bilan yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati, tezda yangilanish va rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Iqtisodiy nazariyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy afzalliklari – bu bandlik darajasini oshirish, ichki

bozorni to'ldirish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va davlat iqtisodiyotiga soliq shaklida barqaror daromad keltirishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotning tayanch ustuniga aylantirish zarurligini qayd etib, ushbu yo'nalishdagi islohotlarni jadallashtirishga alohida urg'u bermoqda. Jumladan, Prezident quyidagi fikrni ilgari surgan: *“Tadbirkorlik bilan shug'ullanish – bu oddiy ish emas. Buning uchun jasorat, bilim va yuksak fidoyilik kerak. Biz har bir tadbirkorga og'irini yengil qilish, uni himoya qilish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.”*¹⁸ Ushbu yondashuv mamlakatda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga doir siyosiy irodaning kuchliligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kredit va moliyalashtirish tizimi soddalashtirildi, tadbirkorlar uchun soliq yengilliklari joriy etildi, davlat tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qo'llab-quvvatlov mexanizmlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun lizing, grant, subsidiyalar va tijorat banklari orqali kredit ajratishning yangi mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Biroq, bu boradagi mavjud yutuqlarga qaramay, kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda hali ham muammolar mavjud. Ularning asosiylari sifatida kredit olishdagi garov ta'minoti, foiz stavkalarining yuqoriligi, moliyaviy savodxonlikning past darajada ekanligi, investitsiya loyihalarini baholash metodologiyasining to'liq shakllanmaganligi kabi omillarni keltirish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biri — bu investitsion muhitning barqarorligi va qulayligi. Investitsion muhit, o'z navbatida, kichik biznesni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratadi. Bunday muhitda

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.04.1999 yildagi 754-I-son

davlat siyosati, qonunchilik, bank tizimi, infratuzilma va innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan siyosat va strategiyalar hamda ular bilan bog'liq investitsion muhit tahlili, ayniqsa, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ish o'rinlari yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Investitsion muhit — bu mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan barcha iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarni o'z ichiga oladi. Kichik biznes uchun investitsion muhit, asosan, quyidagi asosiy omillardan tashkil topadi.

Moliyaviy manbalar: Kichik biznesning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilish muhim. Bu nafaqat kreditlar va grantlar, balki lizing va investitsiya fondlari kabi vositalar orqali ham amalga oshiriladi. O'zbekistonda kichik biznes uchun bank kreditlari va imtiyozli kreditlar imkoniyatlari kengaytirilmoqda, lekin hali ham kredit olish jarayonlari ba'zan qiyinchiliklarga duch keladi.

Qonunchilik va soliq siyosati: Kichik biznesni rivojlantirish uchun samarali qonunchilik bazasining yaratilishi muhimdir. O'zbekiston hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va boshqa imtiyozlarni taqdim etib, biznesni rivojlantirish uchun yengillashtirilgan shart-sharoitlarni yaratdi. Masalan, kichik biznes uchun soliq stavkalari pasaytirildi va soliq hisobotlarini soddalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Texnologik infratuzilma: Yangi texnologiyalarni tatbiq etish va modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan texnologik infratuzilma va resurslarni yaratish zarur. Kichik bizneslar uchun innovatsiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay muhit yaratish juda muhimdir. O'zbekiston iqtisodiyotida, xususan, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va sanoat sohalarida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan dasturlar ishlab chiqilgan.

Raqobat muhiti: Kichik biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun raqobatbardosh muhit ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda kichik va o'rta bizneslar uchun raqobatni rivojlantirish va yirik korxonalarga qarshi raqobatni ta'minlash uchun yuridik va moliyaviy imkoniyatlar kengaytirilmoqda.

O'zbekiston hukumati kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Bularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

Soliq va moliyaviy siyosat: O'zbekiston hukumati kichik biznesni rivojlantirish uchun soliq tizimini soddalashtirish, imtiyozlar yaratish va subsidiya mexanizmlarini joriy etish orqali soliq yukini kamaytirdi. Bu orqali, kichik va o'rta biznesning o'sishiga turtki berilishi ko'zda tutilgan. 2020-yilda kichik biznesni rivojlantirishga oid yangi "Soliq imtiyozlari" kiritildi, bu esa xususiy tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun soliq to'lovlarini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash: Davlat yosh tadbirkorlar uchun maxsus grantlar va imtiyozli kreditlar taqdim etadi. 2020-yilda "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi ishga tushirildi, bu dastur yosh tadbirkorlar uchun grantlar va imtiyozli kreditlarni taqdim etadi. Yosh tadbirkorlarning innovatsion loyihalarini amalga oshirish uchun mablag'lar ajratilgan.

Qonunchilikni modernizatsiya qilish: Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston hukumati qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda qabul qilgan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni orqali, kichik biznesning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan soliq imtiyozlari, kreditlar va boshqa moliyaviy yordam ko'rsatilishi ta'minlandi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus davlat dasturlari: O'zbekiston hukumati kichik biznesni rivojlantirish uchun aniq strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqdi. Bular qatorida "Har bir oila – tadbirkor" dasturi, "Kichik biznesni rivojlantirishning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan dasturi" va boshqa davlat dasturlari mavjud.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik: O'zbekistonning kichik biznesni rivojlantirish borasidagi davlat siyosati xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi. Jahon banki, Yevropa Investitsiya Banki va boshqa tashkilotlar kichik biznesni rivojlantirish uchun kreditlar va grantlar ajratadi. Bular o'zbek

tadbirkorlariga yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashishda yordam beradi.

Davlat kichik biznesning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan siyosat quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Tadbirkorlik faoliyatini qulaylashtirish: Davlat kichik biznesning yuridik shaklini tanlash, ro'yxatdan o'tish, litsenziya olish, soliq to'lovlarini amalga oshirish va boshqa turli jarayonlarni soddalashtiradi. Yuridik birokatiyani kamaytirish orqali, kichik biznes faoliyatini boshlash va rivojlantirish osonlashtirilmoqda.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali, kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasining pasayishi va soliq siyosatidagi yangiliklar kichik biznes uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion sohalarga sarmoya: Davlat kichik biznesni innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga undashda asosiy rolni o'ynaydi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan grantlar va subsidiyalar yangi biznesni rivojlantirishda qo'shimcha turtki beradi.

Kichik biznes uchun investitsion muhit va davlat siyosati bir-birini to'ldiruvchi muhim omillardir. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay investitsion muhit va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat kichik va o'rta biznesning o'sishiga katta turtki bo'lishi mumkin. Shuning uchun, kelajakda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlashi, soliq imtiyozlari, grantlar, kreditlar va boshqa moliyaviy yordamlar yanada kuchaytirilib, yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning ahamiyati kundan-kunga ortib borayotganini inobatga olgan holda, bu sohaga oid moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi zarur. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'zining fleksibilite, yangi ish o'rinlari yaratish va raqobatbardoshlikni oshirish kabi ijobiy ta'sirlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kichik bizneslar ko'plab moliyaviy va tashkiliy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu qiyinchiliklarning eng asosiylari kredit olish jarayonlarida yuzaga

keladigan to'sqinliklar, banklar tomonidan yuqori foiz stavkalari, moliyaviy yordamning cheklanganligi va kichik biznes subyektlarining bozorni kengaytirish imkoniyatlarining cheklanganligidir.

Ushbu masalalarni hal etishda davlat siyosati, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar o'rtasida muvofiqlik va hamkorlikni kuchaytirish zarur. Kichik biznesni moliyalashtirishda innovatsion moliyaviy vositalardan, shu jumladan, onlayn kreditlash tizimlari, moliyaviy texnologiyalar, venture kapital va davlat subsidiyalari kabi imkoniyatlardan foydalanish lozim. Boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalari O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mavjud tizimni takomillashtirish orqali kichik bizneslar uchun innovatsion moliyaviy vositalar va xizmatlarni joriy etish, moliyaviy barqarorlikni oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish va davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish mumkin.

Kelajakda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosati, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, shuningdek, kichik bizneslar uchun maxsus kreditlar va grantlar mexanizmlarini kengaytirish muhim vazifalardan biridir. O'zbekistonning kichik biznes sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va yangi ish o'rinlari yaratishga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari – 2016-2024 yillarda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy yordam va iqtisodiy islohotlar bo'yicha nutqlari.
2. "O'zbekiston iqtisodiyoti: Bugungi holat va istiqbollari" – M.A. Xolmuhammedov, O'zbekiston Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2020.

3. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli" – T.S. Mirzaev, "Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'zgarishlar" jurnali, 2018.
4. "Kichik biznesni moliyalashtirishning samarali mexanizmlari" – B.R. Ismoilov, "Moliya va kredit" ilmiy ishlanmalari, 2019.
5. Xalqaro tajribada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi – G.T. Xudoyberganova, "Xalqaro iqtisodiyot" jurnali, 2021.
6. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish: nazariya va amaliyot" – N.S. To'raqulov, "Investitsiya va moliyaviy boshqaruv" nashriyoti, 2020.
7. "O'zbekiston banklarida kichik biznesni moliyalashtirishning ahamiyati" – S.A. Qodirov, "Bank islohotlari va rivojlanish istiqbollari" ilmiy maqolasi, 2022.
8. "Moliyaviy texnologiyalar va kichik biznes" – A.R. Qodirbaev, "Texnologiyalar va iqtisodiy rivojlanish" jurnali, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga doir qarorlari – 2021-2024 yillarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar.
10. "Tijorat banklari va kichik biznesni moliyalashtirish" – M.K. Abdullayev, "Bank tizimi va iqtisodiy o'sish" monografiyasi, 2018.
11. "Moliyaviy barqarorlik va kichik biznes" – R.S. Tursunov, "Moliyaviy boshqaruv va tadbirkorlik" ilmiy maqolalari, 2020.
12. "Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash: tajriba va istiqbollar" – D.A. Soliyev, "Xalqaro iqtisodiy hamkorlik" jurnali, 2022.
13. World Bank, "Supporting Small and Medium Enterprises (SMEs)" – World Bank Group, 2021.
14. OECD, "Financing Small and Medium Enterprises (SMEs)" – OECD Publishing, 2020.
15. "The Role of Small and Medium Enterprises in Economic Development" – UNDP, 2019.

MAMLAKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI

Muminov Bekzod Baxtiyor o'g'li,
Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi,
Tel: +998 50 756 52 55

e-mail: bekzodmuminov@gmail.com.

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/TWP11150

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

